

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT

DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ONA TILI TA'LIMIDA O'QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
anjuman materiallari

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Toshkent 2022

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA LUG‘ATLARNING O‘RNI

Abror Murtazayev,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada normativ-huquiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazishning huquqiy hamda lingvistik asoslari haqida fikr yuritiladi. Hujjat loyihalarining lingvistik ekspertizadan o‘tkazilishida lug‘atlarning ahamiyati va ularni takomillashtirishning zaruriyat ekanligi haqidagi masalalar haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *hujjat, normativ, huquq, bir ma’noli, ko‘p ma’noli, lingvistik ekspertiza, qonun, vazifa, lug‘at.*

Huquqiy matnlarning eng muhim xususiyatlaridan biri uning bir nechta talqinlardan qilishdan holi shaklda ifodalanishi va shu sababli unda har bir so‘z va bunday matnni yaratish qoidalari muhim ahamiyatga ega.

Agar yuridik matn tabiiy til me‘yorlaridan foydalangan holda va yuridik tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan talqin qilinsa, bu noto‘g‘ri natijalarga olib keladi. Bu muammo, ayniqsa, qonun maqomiga ega bo‘lgan va bunday bo‘lmagan normativ-huquqiy hujjatlarga yaqqol namoyon bo‘ladi. Amaliyotda bunday hujjatlar faqat yuridik jihatdan (huquqshunoslar tomonidan) ekspertizadan o‘tkazilib, lingvistik ekspertizasiz holatda joriylantirilmoqda. Shuning uchun ularda ko‘pincha turli xil tushunishga olib keladigan murakkabliklar, e‘tirozlar bildirilishi ortib bormoqda.

Albatta, bunday hollarda lingvistik tadqiqotlar ko‘pincha ajralmas bo‘lib, uning yordamida barcha lingvistik omillarni va huquqiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bahsli qoidalarni sharhlash mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda ham barcha normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertiza qilish bo‘yicha katta tajribalar to‘plangan bo‘lib, ularni o‘zbek tili doirasida ham yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrda “Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 662-sonli qaror bilan bu boradagi ishlarning huquqiy asoslari tasdiqlab berildi. Endigi vazifa esa tilshunos va huquqshunoslar tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazishning nazariy-metodik jihatlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish uchun tayyorlash bo‘ladi.

Albatta, normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy uslubda, aniq, ixcham yozilishi shart va bu shartni bajarishda so‘zlarning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Avtotransport vositalarini ixtiyoriy kompleks sug‘urta qilish qoidalarini tahlil qilganda, misol keltiraylik:

Sud jarayonida: Da‘vogarning mashinasi qorga botib qoldi. Uni boshqa mashina olib chiqib ketayotganida, tortish uchun bog‘langan arqon (sim arqon) ilgagi

buralib ketgan va old bamperga shikast yetkazgan. Sug'urta kompaniyasi Qoidalarga tayangan holda sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortgan.

Paragraflarning birida transport vositasiga yetkazilgan zarar "sug'urtalangan transport vositasining sug'urtalangan shaxsni tashishda va/yoki tortib olish jarayonida ishtirok etayotgan boshqa transport vositasi bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, sug'urta hodisasi hisoblanmaydi", deyilgan. Transport vositasi (shu jumladan tortib olish qoidalari buzilganda yoki kabelning uzilishi yoki qattiq bog'lanish natijasida).

Bir tomon bu holatda o'zaro ta'sir ikki mashinaning to'qnashuvi deb hisoblagan, ikkinchi tomon esa tasvirlangan ishni ushbu konsepsiyaga kiritgan.

Lingvistik tadqiqotlar doirasida mutaxassislar "o'zaro ta'sir" so'zining umumiy qo'llanilishini izohladi va uni tabiiy tildan mos keladigan iboralar va maxsus ma'noga ega iboralar bilan almashtirgan kontekstlarni modellashtirdilar. Kontekstlar yuridik matnning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ma'no jihatidan asl ibora bilan solishtirildi.

Natijada, tahlil shuni ko'rsatdiki, "avtomobilning boshqa transport vositasi bilan o'zaro ta'siri" iborasi "to'qnashuv va boshqa turdagi kontaktli o'zaro ta'sirlar, buning natijasida transport vositasi o'zgarishlarga uchraydi (= shikastlanadi yoki halok bo'ladi)" tarzida ekan.

Lingvistik ekspertiza yordamida huquqiy matndagi bahsli ifodaning to'g'ri ma'nosini asosli ravishda aniqlash muhim. Sharhlashning maxsus qoidalarini qo'llamasdan, bahsli iboraning ma'nosini aniq aniqlash deyarli mumkin emas va bunda puxta ishlangan lug'atlarning roli beqiyos.

Nomativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertiza qilish bo'yicha f.f.d., professor Sh.Ko'chimovning metodik qo'llanmasida[3] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi 18-modda va O'zbekiston Respublikasi Fuqaroligi to'g'risidagi qonunining 2-moddalarining lingvistik ekspertizasi keltirilgan. Ushbu tahlilda ham 2-moddada "dinga munosabati" va "sajiyasi" so'zlarining qo'llanilishi bilan bog'liq qo'pol xato qilinganligi ta'kidlanadi. Ya'ni, 18-moddada "dini... qat'i nazar" qaysi dinga e'tiqod qilishining ahamiyati yo'q deb tushuniladi, 2-moddada esa "dinga munosabati" bu juda keng tushunilishi mumkin, masalan, dinga qarshi, dinga o'ta berilib ketish ham dinga munosabat hisoblanadi. Bilamizki, dinga qarshi, dinga o'ta berilgan mutaassib shaxslar dinga mo'tadil munosabatda bo'ladigan shaxslardan keskin farq qiladi va bu holat uning barcha xatti-harakatlarida ham kuzatiladi. Odatda dinga o'ta qarshi yoki o'ta berilib ketgan shaxslar jamiyatning muayyan qoidalarini buzishi, o'zgalarning huquqlarini poymol qilishi va shuning natijasida boshqa erkin shaxslar kabi imtiyozlardan (ozodlikdan, turli tashkilotlarda ishlash, jamiyatlarga a'zo bo'lish kabilardan) mahrum qilinadi. Shuningdek, O'TILda sajija[4] so'zi aynan xarakterga teng ekanligi keltirilgan bo'lib, qonun tilda ham xarakteri, fe'lidani qat'i nazar hamma barobar degan matn mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, xarakteri og'ir, fe'li yomon odam xarakteri yaxshi odamlar bilan teng bo'la olmasligini hech kim inkor qilmasa kerak.

O'zbekiston respublikasi adliya vazirining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini

tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy ko'rsatmalarni tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga [O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2012- yil 9- aprelda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2352] ko'ra, "20. Loyihada quyidagilarning qo'llanishiga yo'l qo'yilmaydi:

og'zaki nutq shakllari;

xorijiy tillarning atamalari, davlat tilida teng ma'noli so'zlar va tushunchalar bo'lgan taqdirda;

eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar;

abbreviatura va qisqartmalar (umumiy qabul qilingan abbreviatura va qisqartmalar, shuningdek qonunosti hujjatlarining ilovalaridagi tashkilotlarning qisqartirilgan nomlari bundan mustasno)." [2] keltirilgan bo'lib, "vazifa va funksiyalar" ko'p qo'llanilgan bo'lib, funksiya rus tilidan tarjima qilinganda vazifa bo'ladi, huquqshunoslar esa bu o'rinda vakolat ekanligini ta'kidlashadi. Huquqshunoslar uqtirgani kabi funksiya-vakolatga to'g'ri kelsa, demak, vazifa va vakolatlari tarzida berilishi ham qonuniy ham mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Xulosa sifatida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish uchun avvalo, o'zbek tilining izohli hamda yuridik terminlar izohli lug'atlarini hozirgi davrga mos, shu kunning talabiga javob beradigan qilib takomillashtirish zarur bo'lsa, shu kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tarkibida qo'llanilgan so'zlarning semantik jihatdan, ayniqsa xorijiy tildan o'zlashgan so'zlarni chuqur tahlilini amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон республикаси адлия вазирининг "Давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасига киритиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш, юридик-техник жиҳатдан расмийлаштириш ва ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисида услубий кўрсатмаларни тасдиқлаш ҳақида"ги буйруғига [Ўзбекистон республикаси адлия вазирлиги томонидан 2012 йил 9 апрелда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2352].

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 662-sonli qarori.

3. Ko'chimov Sh. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022.

4. Ўзбек тилининг изохли луғати. V жилдли. III жилд. Тошкент. ЎзМЭ. 2020.

Bobir Maxammadov Ingliz tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (aotmi) terminlarining semantik, genetik va struktur xususiyatlari	279
Durdona Xamidova Iqtisodiy terminlarning o‘zbek va ingliz tilidagi lug‘atlarda berilishi muammolari	281
Фазылова Н.С Методы работы со словарём в начальных классах	285
AMALIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI	
Safo Matchonov Normurod Norqobilov – inson va tabiat munosabatlari kuychisi	288
Muhayyo Xakimova Holat ravishlarida “payt” semantikasining ifodalanishi	292
F. Yuldashev “Ma’naviyat” leksik kategoriyasining lingvistik tadqiqi va talqini xususida	295
Otabek Shukurov Yangi o‘zlashmalar xususida	297
Husnigul Jo‘rayeva Mumtoz siymolar yoshlar tarbiyachisi sifatida	299
Shahnoza Rahmonova Miriyning kichik hajmli masnaviylarida aruz tizimi	301
Sa’dullo Qur'onov Adabiyotni davrlashtirishda inson konsepsiyasi kategoriyaning ahamiyati	304
Matluba Jabborova Mumtoz lirikada an’anaviy obraz talqini	307
E’zoza Sabirova O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi huquqiy terminlar ilustrativ misollarining ta’limiy ahamiyati	312
Nigora Haytaliyeva Poetik tafakkur va ifoda tarzidagi yangilanishlar ruhiyat tasviridagi o‘zgarishlarning omili	315
Nilufar Berdiyeva Turkiy xalqlar adabiyotida ozarbayjon adabiyotining tutgan o‘rni	322
Dilnoza Artikova Fitonimlarning terminologiyadagi o‘rni va uning lug‘atlarda berilishi	326
Otabek Abdunazarov -chi qo‘shimchasining ot yasashdagi o‘rni	329
Abror Murtazayev Normativ-huquqiy hujjatlarning lingvistik ekspertizasida lug‘atlarning o‘rni	334
Murotali Latipov Is’hoqxon Ibratning ijodiy merosi: mavzuiy va janriy tasnifi	337
Nargiza Soliyeva Siyosiy matnlar lingvistik ekspertizasida lug‘atlarning o‘rni	340